



BOSHQARUV QARORI

2023 y. "23" noyabr

Nº 126/4

Toshkent sh.

Ichki nazorat va komplayens departamenti faoliyatini tartibga soluvchi ichki me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida ichki nazorat tizimini samarali tashkil etish va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish hamda bankda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me'yoriy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid qonunchiligiga moslashtirib borish maqsadida, bank Boshqaruvi

QAROR QILADI:

1. Bankning Ichki nazorat va komplaens departamenti tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Ichki nazorat va komplayens departamenti to'g'risida"gi Nizom, "Aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan fuqarolarni rag'batlantirish to'g'risida"gi Nizom hamda "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti" amaldagi qonunchilikka mosligini ta'minlash bo'yicha Ekspert guruhining 2023-yil 17-oktabrdagi 59-sonli bayoni ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Ichki nazorat va komplayens departamenti to'g'risida"gi Nizom 1-ilovaga muvofiq ma'qullansin va tasdiqlash uchun Bank Kengashi muhokamasiga taqdim qilinsin.

3. "Aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan fuqarolarni rag'batlantirish to'g'risida"gi Nizom 2-ilova, "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti" 3-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

4. **Ichki nazorat va komplayens departamenti** (A. Xaitov) ushbu hujjatlarni tasdiqlash uchun hujjatlarni Korporativ boshqaruvi xizmatiga taqdim etilishini ta'minlasin.

5. **Ichki nazorat va komplayens departamenti** (A. Xaitov) maskur hujjatlar tasdiqlangandan so'ng ichki nazorat va komplayens departamenti hamda Mintaqaviy markaz ichki nazorat va komplayens xizmati menejerlari lavozim majburiyatlarini qayta ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlatsin.

6. Bank kuzatuv Kengashining 2022-yil 23-avgustdaggi 21-sonli bayoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Ichki nazorat va komplayens departamenti to'g'risida"gi Nizom, bank Boshqaruvi tomonidan 2022-yil 15-martda 32/3-sonli qaror bilan tasdiqlangan "Aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Tartibi" o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

7. **Ijro nazorati departamenti** (F.Kurbanov) mazkur qarorning nusxasini bank markaziy apparatining barcha tarkibiy bo'limmalariga va Mintaqaviy markaz, hududiy,tuman (shahar) filiallariga ma'lumot va ijro uchun yetkazilishini ta'minlasin.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Boshqaruv Raisining birinchi o‘rinbosari Z. Azimov zimmasiga yuklansin.

Boshqaruv Raisi

Sh. Atabayev

Boshqaruv Raisining
birinchi o‘rinbosari

Z. Azimov

Boshqaruv Raisi
o‘rinbosari

F. Ruziyev

Boshqaruv Raisi
o‘rinbosari

D. Kutliyev

Boshqaruv Raisi
o‘rinbosari

G. Rashidova

Yuridik departamenti
direktori

N. Tashmatov



**O‘zbekiston Respublikasi
aksiyadorlik tijorat
Xalq banki Boshqaruvining
2023-yil 23 - noyabr dagi
126/4- sonli qaroriga
2-Ilova**

**Aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida
xabar bergen fuqarolarni rag‘batlantirish to‘g‘risidagi
NIZOM**

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagagi “Korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korruptsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 829-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Korruptsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida” Nizomi talablari asosida ishlab chiqilgan.

Nizom O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida (keyingi o‘rinlarda - Bank) korruptsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen fuqarolar va bank xodimilarni rag‘batlantirish, ularni taqibga olinmasligi kafolatlarini belgilovchi bankning ichki me’yoriy hujjati hisoblanadi.

1-bob. Umumiy qoidalari

1. Ushbu Nizom aksiyadorlik tijorat Xalq banki va uning mintaqaviy markazlari/bank xizmatlari markazlari/bank xizmatlari ofislari uchun ichki me’yoriy hujjati hisoblanadi va bankda korruptsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen fuqarolar va bank xodimlarini rag‘batlantirishni belgilaydi.

2. Bank har qanday korruptsiyaviy huquqbazarliklarga yo‘l qo‘yilmasligini hamda ularning xolis, to‘liq va har tomonlama ko‘rib chiqilishi va ular yuzasidan adolatli qaror qabul qilinishini ta’minlaydi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

korruptsiya - bank xodimining o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan bank xodimi manfaatlarini yoxud o‘zga bank xodimlarining manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korruptsiyaviy harakatlar - xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korruptsiyaga oid huquqbazarlik - korruptsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

pora olish – mansabdor shaxsning o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o‘zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy naf ko‘rishi;

pora berish – mansabdor shaxsning o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora bergen shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali mansabdor shaxsga moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish;

poraxo‘rlik – pora olish, pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilish;

pora olish-berishda vositachilik qilish – pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek manfaatdor shaxslarning topshirig‘i bilan porani bevosita berish;

ta’magirlik – mansabdor shaxs tomonidan fuqaroning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan xizmatiga doir harakatlarni sodir etish taxdidi ostida pora talab qilish yoki fuqaroni uning qonuniy manfaatlariga zarar keltiradigan oqibatlarning oldini olish uchun pora berishga majbur etadigan sharoitga qasddan tushirish;

rag‘batlantirish – korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ko‘maklashgan shaxslarni bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg‘a shaklida rag‘batlantirish;

Taalluqli xabar – Bankning korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar tuqnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo‘lgan xabar.

2-bob. Korrupsiyaviy huquqbazarliklarning tushunchalari va turlari

4. Nizomda korrupsiyaviy huquqbazarlik deganda Bank xodimlari yoki boshqa shaxslarning bevosita va (yoki) bilvosita bank faoliyatiga hamda uning ishchanlik obro‘siga salbiy ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan har qanday harakatlari va (yoki) harakatsizligi tushuniladi.

5. Korrupsiyaviy huquqbazarliklar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

korrupsiyaga bog‘liq bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan arizalar, shikoyatlar va murojaatlar;

bank xodimlarining bank amaliyotlariga noqonuniy aralashuvi;

jismoniy va yuridik shaxslarning hamda bankning mablag‘larini o‘g‘irlanishiga, bankka zarar yetkazilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlar;

poraxo‘rlik, firibgarlik, o‘g‘rilik, ta’magirlik va boshqa suiiste’molchilik holatlari.

yuqoridagi huquqbazarliklar haqidagi ma’lumotlarni qasddan yashirish.

6. Xodimda u yoki bu harakat (harakatsizlik) huquqbuzarlik ekanligiga shubha tug‘ilsa, u bankning vakolatli (Ichki nazorat va komplayens departamenti mas’ul) xodim(lar)idan maslahat so‘rashga haqli.

7. Bank xodimi tayloranib kelayotgan va (yoki) sodir etilgan huquqbuzarlik to‘g‘risida bankni xabardor qilish uchun har qanday shubha bo‘lishi kifoya.

8. Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergen xodim(lar)ga nisbatan ishdan bo‘shatish, lavozimdan tushirish, kamshitish, taqib qilish kabi tazyiqlarga yo‘l qo‘yilmaydi va taqdim etilgan ma’lumotlar boshqa xodimlarga va/yoki uchinchi shaxslarga ularning roziligesiz oshkor qilinmasligi kafolatlanadi.

3-bob. Huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabarlarni qabul qilish tartibi

9. Departamentning Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi bankning aloqa kanallaridan kelib tushgan xabarlarni ko‘rib chiqishga mas’ul hisoblanadi.

10. Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari va telegram boti orqali kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish uchun Ichki nazorat va komplayens tuzilmasi mas’ul xodimi tayinlanadi.

Bunda, xabar kelib tushganda Boshqarma mas’ul xodimi fuqaro bilan uchrashgan holda, elektron yozishma yo‘li bilan, tegishli uchrashuvlar asosida yoki telefon orqali bog‘lanib zarur axborotni aniqlashtiradi, xabarni ro‘yxatga oladi va ma’lumotni Departament direktoriga kiritadi.

Bankning ijtimoiy tarmoqlaridagi rasmiy kanal va sahifalari, telegrann bot va boshqa manbalardan hamda Bankning mintaqaviy markazlari/bank xizmatlari markazlari/bank xizmatlari ofislari xodimlari, shuningdek ularning quyi bo‘linmalarini xodimlari tomonidan kelib tushgan xabarlarni qabul qilish uchun Departamenti mas’ul xodimi tayinlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi xodimi kelib tushadigan xabarlarni belgilangan ish kuni davomida tahlil qiladi. Agar xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bu xabar navbatdagi ish kunida aniqlashtirish uchun saqlanadi.

11. Agar murojaatchi o‘z xabarini tasdiqlash uchun qo‘srimcha materiallarga, masalan, fotomateriallar, hujjalarni, audio va videoyozuvlarga ega bo‘lsa, murojaatni qabul qilishga mas’ul xodim ularni taqdim etish bo‘yicha foydalaniladigan aloqa kanallarini (telegram boti yoki elektron pochtasi)ni ko‘rsatadi va taqdim etiladigan ma’lumotni konfedensialligini bildiradi. Mazkur ma’lumotlar taalluqli xabarga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

12. Bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi xabarni olgandan keyin 1 (bir) soat ichida uni ilovaga muvofiq shaklda Bankda korruptsiyaga oid harakatlarni haqidagi xabarlarni qabul qilish reestrida ro‘yxatga olishi lozim.

13. Tegishli xabar Bankning mintaqaviy markazlari/bank xizmatlari markazlari/bank xizmatlari ofislari va tarkibiy bo‘linmalariga kelib tushgan taqdirda, Departamentning Mintaqaviy markaz ichki nazorat va komplayens xizmati menejerlari bu to‘g‘rida zudlik bilan yozma shaklda Departament direktorini xabardor qiladi.

14. Bankning aloqa kanallaridan kelib tushgan xabarlarni ro‘yxatga olinadi va ro‘yxatga olingan xabar bildirishnomasi ko‘rinishida Boshqaruvi Raisiga ko‘rsatma va xizmat tekshiruvini belgilash uchun kiritiladi.

4-bob. Korrupsiyaviy harakatlar haqidagi xabarlarni tekshirish

15. Departamentga kelib tushgan barcha taalluqli xabarlar ushbu bo‘linmaning mas’ul xodimlari yoki Departament direktori topshirig‘iga asosan tayinlangan xizmat tekshiruvi asosida ko‘rib chiqiladi.

16. Korrupsiyaviy harakatlari to‘g‘risidagi xabarlarni ko‘rib chiqish jarayoniga, harakatlari ustidan taalluqli xabar kelib tushgan yoki ko‘rib chiqish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xodimlarni jalb qilish man etiladi.

17. Taalluqli xabar kelib tushganda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodim dastlabki tekshirish o‘tkazib, uning taalluqliligin tahlil qiladi, ya’ni xabarda ko‘rsatilgan ma’lumotning Bank tizimiga taalluqli korrupsiyaga oid huquqbazarlikka va (yoki) manfaatlar to‘qnashuviga tegishliligin tekshiradi.

Dastlabki tekshirish taalluqli xabar Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘linmasiga kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

18. Taalluqli xabarlarni mazmunan ko‘rib chiqish Bankka kelib tushgan kundan e’tiboran bir oy ichida, tekshirish o‘tkazish, qo‘sishimcha materiallarni so‘rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda, ularni ko‘rib chiqish muddatları, Departament direktori tomonidan istisno tariqasida uzog‘i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.

19. Murojaatga javob Ichki nazorat va komplayens departamenti tomonidan taalluqli xabarlarni ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra o‘rganish natijalari va qo‘llanilgan ta’sir choralar ko‘rsatilgan javob xati tayyorlanadi va belgilangan tartibda murojaatchiga yuboriladi.

5-bob. Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen shaxslarni rag‘batlantirish

20. Tasdig‘ini topgan korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ko‘maklashgan shaxslar qo‘yidagi asoslardan biri mavjud bo‘lganda bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi:

ma’muriy huquqbazarlik haqida berilgan xabar uchun - O‘zbekiston Respublikasi hududida bazaviy hisoblash miqdorining **5** barobarigacha miqdorida;

yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz barobarigacha bo‘lsa - bazaviy hisoblash miqdorining **10** barobarigacha miqdorida;

yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz barobaridan ko‘p bo‘lsa - O‘zbekiston Respublikasi hududida bazaviy hisoblash miqdorining **20** barobarigacha miqdorida pul mablag‘i bilan rag‘batlantirilishi mumkin.

21. Korrupsiyaga oid murojaat ahamiyatli bo‘lsa - bir martalik estalik sovg‘asi bilan rag‘batlantirilishi mumkin. Bunda, esdalik sovg‘a qiymati bazaviy hisoblash miqdorining **2** barobarigacha rag‘batlantirilishi mumkin.

22. Rag‘batlantirish mablag‘lari amaldagi qonunchilikka muvofiq barcha soliq va boshqa majburiy to‘lovlar ushlab qoligan holda to‘lab beriladi.

23. Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan bank xodimlar yoki fuqarolarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlar Boshqaruv qarori bilan tasdiqlangan holda bank mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

6-bob. Maxfiylik va kafolat

24. Bank tizimida huquqbazarliklar haqida xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo‘shatish, lavozimidan tushirish, kamsitish, ta’qib qilish kabi tazyiqlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

25. Taqdim etilgan ma’lumotlar boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga ularning roziligesiz oshkor qilinmasligi ta’milanadi.

26. Huquqbazarliklar to‘g‘risida xabar bergan shaxsga nisbatan sanktsiyalar qo‘llanilishi yoki har qanday shaklda javobgarlikka tortilishi Bank tomonidan ushbu Nizomning buzilishi deb hisoblanadi va bu faktlar tasdiqlansa, bunda aybdor shaxslar tegishli javobgarlikka tortiladilar.

27. Agar ma’lumotlar tasdiqlanmasa, qonunbazarliklar haqida xabar bergan shaxs javobgarlikka tortilmaydi, qonunbazarliklar to‘g‘risida ataylab yolg‘on xabar bergan hollar bundan mustasno.

7-bob. Hisobdorlik

28. Ichki nazorat va komplayens departamenti har chorakda Korrupsiyani oldini olish bo‘yicha Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasiga korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risidagi xabarlarga taalluqli bo‘lgan hisobotni taqdim etadi va unda quyidagilar ko‘rsatiladi:

kelib tushgan taalluqli xabarlar va ko‘rib chiqilgan taalluqli xabarlar soni;

korrupsiyaviy harakatlar, manfaatlar to‘qnashuvi holatlari tasdiqlangan taalluqli xabarlar soni;

ko‘rib chiqish muddatlari buzilgan taalluqli xabarlar soni;

taalluqli xabarlarni ko‘rib chiqishning o‘rtacha muddati;

murojaatchilar tomonidan eng ko‘p foydalaniladigan aloqa kanallari va boshqa statistik ma’lumotlar.

29. Ichki nazorat va kamplayens departamenti aniqlangan firibgarlik yoki huquqbazarliklarning takrorlanish xavfini minimallashtiradigan tavsiyalar bilan barcha qonunbazarliklar, tekshiruvlar to‘g‘risida yillik hisobot tayyorlaydi. Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi ushbu tavsiyalarni ko‘rib chiqadi va ular haqida bank Kuzatuv kengashini xabardor qiladi.

30. Bank Kuzatuv kengashi ushbu Nizomning bajarilishini nazoratga oladi. Kuzatuv kengashi:

taqdim etiladigan axborotlarning ochiqligi va shaffofligini hamda xodimlarning ishdan bo‘shatilmasdan yoki boshqa shakldagi tazyiqlardan qo‘rmasdan o‘z xavotirlarini bildirishlari va xabar berishlari mumkinligini ta’melaydi;

huquqbazarliklar to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlaydi, shuningdek, Ichki nazorat va komplayens departamentining taklifiga binoan unga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritadi;

bankning korruption holatlar bo‘yicha hisobotlarini ko‘rib chiqadi;

monitoringni va zarurat bo‘lganda aniqlanayotgan korruption holatlar bo‘yicha ichki tartib-qoidalarini takomillashtirishni ta’minlaydi.

31. Ichki nazorat va komplayens departamenti:

huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar berish tartib-taomillarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi va ularni Kuzatuv kengashiga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

mazkur Nizomni amalga oshirishda bank xodimlariga maslahatlar beradi va boshqa yordam ko‘rsatadi;

huquqbuzarliklarni to‘g‘ri, xolis, to‘liq va har tomonlama tekshirishni amalga oshiradi;

huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi barcha xabarlar, huquqbuzarliklarni tekshirish natijalari va huquqbuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilgan choralar to‘g‘risida Kuzatuv kengashini xabardor qiladi;

32. Bank xodimlari:

ushbu Siyosatga rioya qilishlari va huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabardor qilishlari shart;

huquqbuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda o‘z takliflari bilan ishtiroy etishi mumkin.

8-bob. Yakuniy qoidalar

33. Nizom bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

34. Mazkur nizom asosida qabul qilingan axborotlar, ma’lumotlar, o’tkazilgan suhbatlar va boshqa material hamda dalillar shakllanishidan qat’iy nazar konfidensial ma’lumotlar toifasiga taalluqli bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi va “Tijorat siri to‘g‘risida”gi qonunlari asosida erkin tarqatilishi ta’qilanganadi va himoyalananadi.

35. Nizom murojaatlар va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi o‘zgarganda qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

/ **Ichki nazorat va komplayens
departamenti direktori**

A. Xaitov